

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
rektori, professor D.T.Daminov



**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT
INSTITUTINING
AXBOROT RESURS MARKAZI
NIZOMI**

Toshkent - 2023

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Axborot resurs markazining

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1.1 Davlat oliy ta'lim muassasasining Axborot-resurs markazi (keyingi o'rinlarda Axborot-resurs markazi (ARM) deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish manfaatlari yo'lida axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etuvchi hamda amalga oshiruvchi axborot-kutubxona muassasasi hisoblanadi.

1.2. Axborot-resurs markazi oliy ta'lim muassasasining tarkibiy bo'linmasi sifatida oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga bo'ysunadi.

1.3. Mazkur Nizom Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 30 sentyabrdagi "Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarish sohasidagi ayrim normativ-xuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 552-son qaroriga muvofiq Oliy ta'lim tizimida qabul qilingan axborot-kutubxona faoliyatiga oid normativ-xuquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 11 noyabrdagi **371-sonli buyrug'** ijrosi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 2022 yil 23 dekabrdagi 543-sonli buyrug' ijrosini ta'minlashda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Axborot-resurs markazini, shu jumladan, elektron axborot-kutubxona resurs markazini hisobga olish va axborot-resurs fondini tekshirish tartibini belgilaydi.

1.4. ARM Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektoriga bo'ysunadi.

1.5. ARM Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tomonidan uning tarkibiy bo'linmasi sifatida mablag' bilan ta'minlanadi.

1.6. ARM o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, ta'lim muassasalari boshqaruv organlarining qarorlari, buyruqlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorning buyruqlari va farmoyishlariga, ichki tartib qoidalariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

1.7. ARM o'z faoliyati bilan aholi barcha qatlamlarining axborot resurslari va kutubxona fondidan erkin foydalanishga huquqini ta'minlaydi.

1.8. Axborot-resurslari va kutubxona fondidan foydalanish tartibi, asosiy xizmatlar ro'yxati, ularni ko'rsatish shartlari, foydalanuvchilarning huquqlari va javobgarligi ARMDan foydalanish qoidalarida belgilanadi.

1.9. ARMga umumiy rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tomonidan amalga oshiriladi.

1.10. Barcha idoralarning ARMLari ishlariga umumiy tashkiliy-metodik rahbarlikni, ularning ishlarini muvofiqlashtirishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti faoliyatini

muvofiglashtirish bo'yicha Idoralararo kengash idoraviy va hududiy metodik markazlar tizimi orqali:

1.11. O'zbekiston Milliy kutubxonasi - barcha idoralar uchun res publika metodik markazi, Idoralararo kengashning ishchi organi orqali;

1.12. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat ilmiy-tibbiyot kutubxonasi orqali amalga oshiradi.

1.13. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Axborot-resurs markazining axborot-kutubxona fondi davlat mulki hisoblanadi.

1.14. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Axborot-resurs markazi oliyta'lim muassasasi tasarrufidagi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi kutubxonasiga umumiy, tashkiliy-metodik raxbarlik qiladi, ularning faoliyatini muvofiglashtiradi hamda tasarrufidagi texnikumlarga metodik yordam ko'rsatadi.

II. Axborot-resurs markazining asosiy vazifalari

2.1. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda foydalanuvchilarning muntazam ta'lim olishiga va mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish;

2.2. Milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng targ'ib qilish va xalqning madaniy-tarixiy merosidan bahramand bo'lishni ta'minlash, ma'naviy boy va uyg'un kamol topgan shaxsning ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratish ;

2.3. Axborotlarga bo'lgan talablarga muvofiq va ARM ma'lumotlar qidirish apparati tizimi orqali har qanday fondlardan keng foydalangan holda

yangi axborot texnologiyalari (ma'lumotlarning elektron bazalari, Internet resurslari) asosida aholiga zarur darajada axborot xizmati ko'rsatish;

2.4. ARM-axborot madaniyatini tarbiyalash, foydalanuvchilarni axborotlar qidirishning zamonaviy metodlariga o'qitish;

2.5. ARM-axborot jarayonlarining zamonaviy texnologiyalarini va kompyuterlashtirishni joriy etish asosida ishlarni takomillashtirish;

2.6. Ta'lim muassasasi sohasiga va foydalanuvchilarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq axborot-kutubxona fondini shakllantirish, ma'lumotlar qidirish apparatini, ma'lumotlar bazalarini, kataloglar va kartotekalarni tashkil etish va yuritish;

2.7. Madaniy, ta'lim, axborot va boshqa dasturlar, loyihalar, aktsiyalarni birgalikda amalga oshirish, shuningdek foydalanuvchilarning hujjatlarga va axborotlarga ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish uchun ARMLar, axborot-kutubxona markazlari (AKMLar), kutubxonalar, ta'lim muassasalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, ijtimoiy ta'minot xizmatlari, milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikni, faoliyatni muvofiglashtirish va kooperatsiyalashni rivojlantirish;

2.8. ARM xizmatlari ro'yxatini kengaytirish, ARMni texnik jihoz lash, kutubxona-axborot jarayonlarini kompyuterlashtirish asosida xizmatning sifatini oshirish ;

2.9. Institut talabalarining fanlar bo'yicha mustaqil ishiga tayyorgarlik ko'rishlari uchun ARM va TTJda yaratilgan sharoitlar, uning ish tartibi, kompyuter texnikasi va internetga ulanganligi, ishlash tezligi, Wi-Fi zonalarining mavjudligi o'rganish;

2.10. Yangi olingan o'quv adabiyotlarni elektron shaqlini yaratish va elektron kutubxona fondiga joylashtirib borish. Elektron kitoblar edubook.autolib.uz saytiga joylashtiriladi va bosqichma-bosqich barcha adabiyotlarga QR kodli shtrix yasab, kitoblarga yopishtirib chiqish;

2.11. ARMdagi unilibrary.uz dasturiga yangi olingan adabiyotlarni ARM elektron katalogini kiritib borish. Kiritilgan kitoblarni moderatsiyalab faollashtirib borish;

2.12. Boshqa davlatlar tajribasini o'rganib, tahlil qilib, sohani rivojlantirish borasida sohaga oid ular bilan adabiyotlarni xarid qilishni yo'lga qo'yish;

2.13. Axborot-kutubxona fondini milliy va chet el nashrlari bilan tizimli to'ldirib borish, ularni ehtiyotlab saqlashni yo'lga qo'yish.

III. Axborot-resurs markazining asosiy funksiyalari

3.1. Axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirish masalalari bo'yicha dasturlar, "YO'L XARITA"lari, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;

3.2. O'quv zallarida, abonementlarda hamda yagona kitobxon bileti bo'yicha kitoblar berishning boshqa punktlarida, yakka tartibda va guruhlar bo'yicha xizmat ko'rsatish metodlarini qo'llangan holda, foydalanuvchilarga tabaqalashtirilgan xizmat ko'rsatishni tashkil etadi.

3.3. Toshkent pediatriya tibbiyot institutining kafedralarida, o'quv markazlarida, laboratoriyalarida shakllantirilgan elektron axborot resurslarini to'plash, tizimlash, kataloglashtirishni amalga oshiradi. Elektron kataloglashtirish bibliografik axborotni taqdim etish va uzatishning xalqaro formatlari (ARMAT formatlari) talablariga qat'i muvofiq holda olib boriladi. ARM foydalanuvchilarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma'lumotlarning original tematik bazalarini yaratish yo'li bilan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining axborot-resurslarini shakllantirishi mumkin.

3.4. Audio va video materiallarini hamda boshqa axborot resurslarini sotib olish, obuna bo'lish, admashtirish, bepul olish yo'li bilan axborot-kutubxona fondini shakllantirish;

3.5. ARM foydalanuvchilarni asosiy kutubxona-axborot xizmatlari bilan bepul ta'minlaydi:

- kataloglar, kartotekalar tizimi va ARM axborotlari berishning boshqa shakllari orqali ARM fondi tarkibi to'g'risida to'liq axborot beradi;

- matbaa asarlari va boshqa hujjatlarni qidirish va tanlashda maslahat yordami ko'rsatadi;

- ARM fondlaridan hujjatlarni vaqtincha foydalanish uchun beradi;

- boshqa ARMDan kutubxonalararo abonement bo'yicha hujjatlar oladi;
- Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ilmiy va o'quv ishlariga yordam sifatida bibliografik ko'rsatkichlar, adabiyotlar ro'yxatlarini tuzadi; tematik, adresli va boshqa bibliografik ma'lumotlar beradi; bibliografik sharhlar o'tkazadi; kitob ko'rgazmalari tashkil qiladi;
- foydalanuvchilar, rahbariyat, professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar va aspirantlarning axborotlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi, o'rganadi va muntazam ravishda aniqlashtirib boradi.

3.6. ARM foydalanuvchilarga boshqa xizmatlar, shu jumladan ro'yxati ARMDan foydalanish qoidalarida belgilanadigan pullik xizmatlar ko'rsatadi. Kichik va o'rta biznes korxonalariga, uyushmalar va boshqa tashkilotlarga shartnomalar bo'yicha kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishni tashkil qiladi. Kitobxonlarga kutubxonalararo abonement bo'yicha, shu jumladan elektron pochtdan foydalangan holda xizmat ko'rsatadi.

3.7. ARM axborotlarni qidirib topish, ularni mustaqil ta'lim olishda, o'quv jarayonida va ilmiy ishlarda qo'llanish, ARMning ma'lumotnoma - bibliografik apparatiga, axborot tizimlariga va ma'lumotlar bazalariga tayanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

3.8. Foydalanuvchilar uchun informatika, kutubxonashunoslik va bibliografiya asoslari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qiladi.

3.9. Mintaqaning boshqa ARM bilan muvofiqlashtirgan holda aholi ning axborotlarga, kitoblarga bo'lgan talablari, shuningdek ta'lim kasb-hunar dasturlari, o'quv rejalarini hamda ilmiy tadqiqotlar tematikalariga muvofiq fondni to'ldirishni ta'minlaydi. O'quv, ilmiy, davriy, ma'lumotnoma, badiiy adabiyotlar va boshqa turdagi nashrlarni sotib oladi.

3.10. Fondlarni to'ldirish manbalarini mustaqil ravishda belgilaydi. ARM hamda respublikadagi boshqa muassasa va tashkilotlar bilan kitoblar va elektron resurslar ayirboshlashni, shuningdek zaruriyatga ko'ra xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarini va tashkilotlari bilan xalqaro kitoblar va elektron resurslar ayirboshlashni amalga oshiradi.

3.11. Fondlarni to'ldirish rejalariga tuzatishlar kiritish, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti uchun adabiyotlar chiqarishni rejalashtirish hamda foydalanuvchilarning va fondlar tarkibining axborotlarga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiqlashtirish maqsadida kitobxonlar talabi qondirilishi darajasini o'rganadi. Barcha toifadagi foydalanuvchilarning o'quv va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ta'minlanganligini tahlil qiladi. Ilg'or ARMni, tadqiqot ishlari natijalarini joriy etadi. Kitobxonlar qiziqishlarini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazadi.

3.12. Fondlarni hisobga olish va joylashtirishni amalga oshiradi, ularning saqlanishini, saqlash rejimini, hujjatlar nusxasini olishni va mikrofilmga hamda elektron farmatga ko'chirishni ta'minlaydi.

3.13. Hujjatlarni hisobdan chiqarishning Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori bilan kelishilgan tartibiga, amaldagi me'yoriy va huquqiy hujjatlarga muvofiq hujjatlarni ARM fondidan chiqaradi. Sohaga oid bo'lmagan va ortiqcha, o'xshash nusxa adabiyotlarni qayta taqsimlashni amalga oshiradi.

3.14. Fondlarni ko'p sohali bibliografik aks ettirish yordamida an'anaviy va elektron manbalarda kataloglar va kartotekalar tizimini yuritadi.

3.15. Foydalanuvchilarga avtomatlashtirilgan rejimda tezkorlik bilan turli xizmatlar ko'rsatish imkonini beradigan respublika yig'ma kataloglarni, shu jumladan elektron kataloglarni tuzishda qatnashadi.

3.16. Boshqa ARMLar, kafedralar, ilmiy jamiyatlar, ta'lim muassasalarining jamoat tashkilotlari, respublika AKMLari bilan ijodiy va axborot aloqalarini rivojlantiradi.

3.17. Kutubxonalar, arxivlar, ma'lumotlarning axborot bazalariga ega bo'lgan boshqa korxonalar, muassasalar, tashkilotlar bilan amaldagi qonun hujjatlariga, davlat dasturlariga, shuningdek muassasalar va tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'zaro hamkorlik qiladi.

3.18. Xorijiy axborot-resurs markazlari, nashriyotlar, ARM bilan ilg'or ish tajribasini o'rganish va joriy etish bo'yicha xalqaro kutubxonalararo axborot almashuvlarni rivojlantirish, xalqaro kutubxona anjumanlari va tashkilotlarida qatnashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;

3.19. Xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shu jumladan xorijiy kutubxonalarda tajriba orttirishlarini tashkil etish bo'yicha uzluksiz ish tizimini oshiradi.

IV. Axborot-resurs markazining huquq va majburiyatlari

4.1. "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va ushbu Nizomga muvofiq o'z axborot-kutubxona faoliyatining mazmuni va aniq shakllarini belgilash;

4.2. ARM quyidagi huquqlarga ega:

- Nizomda ko'rsatilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiq o'z faoliyatining mazmunini va aniq shakllarini mustaqil ravishda belgilash;

- ARM tuzilmasini, shtat ro'yxatini va undan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularni ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlash;

- markazga berilgan mablag'larni tasarruf etish;

- yagona tarif setkasi asosida, mehnatga haq to'lash fondi doirasida lavozim maoshlarini; lavozim maoshlariga ustamalar va qo'shimcha to'lovlarni; xodimlarni mukofotlash tartibi va miqdorlarini belgilash;

- foydalanuvchilarga noyob va qimmatli nashrlarni berishda, shuningdek ARMdan foydalanish qoidalarida belgilangan boshqa hollarda garov summasini belgilash;

- ARMDan foydalanish qoidalariga muvofiq, foydalanuvchilar tomonidan ARMga etkazilgan zararni undirish turlari va miqdorlarini belgilash;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar asosida ARMning kutubxona fondidan foydalanish shartlarini belgilash;
- Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ta'lim dasturlari, o'quv rejalari, ilmiy-tadqiqot ishlari tematikasi bilan tanishish, uning tarkibiy bo'linmalaridan ARM oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur bo'lgan materiallar va ma'lumotlarni olish;
- turli muassasalarda, tashkilotlarda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti nomidan vakillik qilish, kutubxona va axborot-bibliografik faoliyat masalalari bo'yicha ilmiy konferentsiyalar, yig'ilishlar va seminarlar ishida bevosita qatnashish;
- boshqa ARMLar, kutubxonalar, tashkilotlar bilan belgilangan tartibda yozishmalar olib borish;
- amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborot-kutubxona birlashmalariga kirish;
- axborot-kutubxona ishini rivojlantirishning davlat va mintaqaviy dasturlarini amalga oshirishda tanlov yoki boshqa asosda qatnashish;
- xorijiy davlatlarning ARMLari, kutubxonalari hamda boshqa muassasa va tashkilotlari bilan belgilangan tartibda hamkorlikni amalga oshirish, shu jumladan zaruriyatga ko'ra xalqaro kitoblar ayirboshlashni yuritish, belgilangan tartibda xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirish, xalqaro kutubxonachilik va boshqa dasturlarni amalga oshirishda qatnashish.

4.3. "Axborot-kutubxona resurslarini axborot-kutubxona resurslarining fondlari hisobidan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq axborot-kutubxona fondlaridan, ularning to'liqligi va butligiga xilof etkazmasdan axborot-kutubxona resursining ortiqcha soni va nusxalarini hisobdan chiqarish;

4.4. O'z vakolatlari doirasida maxalliy va xalqaro axborot-kutubxona muassasalari hamda tashkilotlari bilan aloqalarni amalga oshirish;

4.5. Xodimlarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan professional foydalanish, chet tilini bilish va ularni raxbanlantirish;

4.6. ARM fondlarning saqlanayotgan axborot-kutubxona resurslarining saqlanishini, to'liqligini va butligini ta'minlash ishi uchun javob beradi.

4.7. Foydalanuvchilarga o'z vaqtida va sifatli axborot-kutubxona xizmati ko'rsatilishini ta'minlash;

4.8. ARMning yig'ma elektron katalogini va axborot-kutubxona resurslari elektron katalogini shakllantirish;

4.9. ARMning elektron kutubxonasining yagona elektron axborot-kutub xona fondini shakllantirish;

4.10. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ARM o'zining vakolatiga taalluqli funksiyalarning bajarilmagani uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

4.11. ARM fondlariga zarar etkazilishida aybdor bo'lgan ARM xodim lari amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javob beradilar.

4.12. ARM xodimlarining mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublika si qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

V. Axborot-resurs markazini boshqarish tuzilmasi va shtatlari, moddiy-texnika ta'minotini boshqarish.

5.1. ARMga direktorlik rektor (mudir) tomonidan amalga oshiriladi, u Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tomonidan, oliy kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan va ixtisosi bo'yicha kamida 5 yil ish stajiga ega bo'lgan mutaxassislardan, mehnat shartnomasi (kontrakti) bo'yicha tayinlanadi.

5.2. Direktor (mudir) o'z vakolati doirasida ishlarning natijalari uchun to'liq javob beradi, barcha xodimlar uchun majburiy bo'lgan farmoyishlar va ko'rsatmalar chiqaradi.

5.3. ARM xodimlari shartnoma (kontrakt) tuzish yo'li bilan ishga qabul qilinadi.

5.4. ARM direktori qonunchilikka muvofiq ARM xodimlarini raxbarlantirish chora-tadbirlarini ko'radi va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha ToshPTI rektoriga takliflar tayyorlaydi.

5.5. Belgilangan tartibda ARMning mol-mulkini tasarruf etadi, markazning axborot-kutubxonalar resurslaridan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

5.6. ARM huzurida maslahatlashuv organi sifatida, ishlarni boshqa ARM, AKM, kutubxonalar, Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ilmiy va o'quv bo'linmalari bilan kelishish uchun ARM kengashi tashkil etiladi. Kengash tarkibi ARM direktori (mudiri) taqdimiga ko'ra Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori tomonidan tasdiqlanadi. Kitobxonalar ARM bilan kelishgan holda tashkil etiladigan homiylar kengashlari yoki kitobxonlarning boshqa birlashmalari faoliyatida qatnashadilar.

5.7. ARM o'z faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda hujjatlarni yuritadi hamda hisobotlarni, ish rejalarini va boshqa axborotlarni taqdim etadi.

5.8. ARM tuzilmasi muayyan Toshkent pediatriya tibbiyot instituti uchun yakka tartibda ishlab chiqiladi va an'anaviy bo'linmalar (abonementlar, o'quv zallari va boshqalar)dan tashqari innovatsiya bo'limlari, sektorlar (avtomatlashtirish, marketing bo'limlari va boshqalar)ni o'z ichiga olishi mumkin.

5.9. ARMning boshqaruv va xizmat ko'rsatish xodimlari soni Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ARM Namunaviy shtatlari asosida, ARM oldida turgan vazifalarni xisobga olgan holda hamda xizmat ko'rsatiladigan aholi va Toshkent pediatriya tibbiyot instituti o'quvchilari sonidan kelib chiqib, belgilangan tartibda shakllantiriladi.

5.10. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori resurslar jamlashni kafolatli moliyalashtirishni, ARMni amaldagi me'yorlarga muvofiq zarur xizmat va ishlab

chiqarish xonalari, kompyuterlar hamda nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi, aloqa kanallari va tashkiliy texnika bilan ta'minlaydi.

5.11. ARM ta'minoti uchun xarajatlar Toshkent pediatriya tibbiyot institutining umumiy xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

5.12. ARM o'zining subxisob raqamiga ega bo'lishi mumkin, unga markaz tomonidan pulli qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish hisobiga jalb etiladigan mablag'lar kiritiladi.

VI. Axborot-resurs markazini qayta tashkil etish va tugatish

6.1. ARMni qayta tashkil etish va tugatish (qo'shish, ajratish, ayirish, birlashtirish, qayta o'zgartirish) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qaroriga ko'ra, amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

6.2. ARMni qayta tashkil etishda barcha hujjatlar (boshqaruv, moliya-xo'jalik hujjatlari, shaxsiy tarkib bo'yicha hujjatlar va boshqalar), mol-mulk va fondlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.